

## PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA HARBIY VATANPARVARLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Baybayeva Muxayyo Xudaybergenova,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrasи professori, pedagogika fanlari doktori

Elboboyev Yashin Komil o'g'li,

Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil izlanuvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada talabalarining vatanga bo'lgan sifatlarini shakllantirish, ularda vatanga bo'lgan mehrini ifodalay olish haqida va vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida o'z tug'ilib o'sgan yurtiga hurmat va ehtirom tuyg'usini shakllantirishga insonparvarlikning muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratish hamda globallashuv sharoitida dunyo miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb eteshi ayniqsa, har qanday mamlakat xavfsizligi va barqorligini ta'minlashda, eng avvalo, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi maskuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari borasida jiddiy izlanishlar talab qilinishi, bu esa mamlakatda yoshlarning vatanparvarlik fazilatini tarbiyalashda, ma'naviy-ma'rify ishlarni yanada takomillashtirish orgali xavfsizlikni ta'minlashda istiqboldagi maqsadlarga erishuvga zamin yaratadishi yoritigan. Maskur maqolada talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari, milliy qadriyatlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarini ajdodlar qoldirgan boy ma'naviy meros bilan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida so'z yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* Vatanparvarlik, barqaror, tahdid, umuminsoniy, metodika, qadriyat, axborot xurujlari, tuyg'u, uzlusiz, pozitsiya, innovatsion, xavfsizlik, globallashuv, jadallahuv.

## РАЗВИТИЕ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА

Байбаева Мухайё Худайбергеновна,

Доктор педагогических наук, профессор кафедры "Педагогика"

Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Елбобоев Яшин Камилович,  
Соискатель ТГПУ имени Низами

*Аннотация:* В данной статье рассматривается формирование качеств учащихся по отношению к Родине, умения выражать свою любовь к Родине и развитие чувства патриотизма, значение гуманизма в формировании чувства уважения и почтания к Родине. Обсуждается ориентация на страну их рождения и воспитания на основе общечеловеческих ценностей, а обеспечение мира, безопасности и стабильности в глобальном масштабе в условиях глобализации имеет большое значение, особенно в обеспечении безопасности и стабильности любой страны. стране, прежде всего, в плане укрепления идеологического иммунитета против внутренних и внешних угроз. Подчеркивается, что необходимы серьезные исследования, которые создадут основу для достижения будущих целей в воспитании патриотизма молодежи в стране, в обеспечении безопасности путем дальнейшего совершенствования духовно-просветительской

работы. В данной статье анализируется современное состояние воспитания студентов в духе патриотизма и пути его совершенствования на основе национальных ценностей. А также о воспитании студентов в духе патриотизма, используя богатое духовное наследие, оставленное их предками.

**Ключевые слова:** патриотизм, устойчивый, угроза, универсальный, методология, ценность, информационные, чувство, непрерывность, позиция, инновации, безопасность, глобализация, ускорение.

## DEVELOPMENT OF MILITARY-PATRIOTIC QUALITIES IN PEDAGOGICAL UNIVERSITY STUDENTS

Baybaeva Mukhayo Khudaibergenovna,

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor of the Department of Pedagogy,  
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Elboboev Yashin Kamilovich,  
Applicant TSPU named after Nizami

*Abstract: This article examines the formation of students' qualities in relation to the Motherland, the ability to express their love for the Motherland and the development of a sense of patriotism, the importance of humanism in the formation of a sense of respect and veneration for the Motherland. The focus on the country of their birth and upbringing on the basis of universal human values is discussed, and ensuring peace, security and stability on a global scale in the context of globalization is of great importance, especially in ensuring the security and stability of any country. the country, first of all, in terms of strengthening ideological immunity against internal and external threats.*

*It is emphasized that serious research is needed that will create the basis for achieving future goals in educating the patriotism of youth in the country, in ensuring security through further improvement of spiritual and educational work. This article analyzes the current state of educating students in the spirit of patriotism and ways to improve it based on national values. And also about educating students in the spirit of patriotism, using the rich spiritual heritage left by their ancestors.*

**Keywords:** patriotism, sustainable, threat, universal, methodology, value, information, feeling, continuity, position, innovation, security, globalization, acceleration.

Talaba yoshlarimizda mamlakatimizning qadimiy tarixi va madaniyati, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga doimo munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish bugungi kunning eng ustuvuor vazifalardan biridir. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari va axborot xurujlarining jadallahushi o'sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida o'z tug'ilib o'sgan yurtiga hurmat va ehtirom tuyg'usini shakllantirishga insonparvarlikning muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Ana shu nuqtai nazardan jahon tashkilotlarining tarbiya, fan, madaniyat, tinchliksevarlik sohasidagi hamkorlik g'oyalari aks etgan strategik hujjatlarda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ustuvorlik kasb etadi. Fuqarolik ta'limi asosida talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashning innovatsion tizimini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yamoqda. Aynan shunday sharoitda

mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqr singdirish, “Xalq va armiya -bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda. Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’limning ijtimoiy va shaxsiy yo‘naltirilgan qadriyati sifatida qaralishi ta’lim-tarbiya jarayoniga, o‘quv rejalar, dasturlari, darsliklari, metodik adabiyotlarda puxta gavdalantirilishi zarur. Bu ishni amalga oshirishda xalq pedagogikasi – xalq og‘zaki ijodi muhim manba hisoblanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida bosqichma-bosqich tarbiyalash – bugungi kunda pedagogika fanining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Buning uchun turli variativ dasturlar, moslashuvchan shakllar, samarali metodlar, qulay vositalar, pedagogik mos sharoitlar va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish talab etiladi. Aynan ijodiy-pedagogik, innovatsion yondashish ta’limning asosiy qadriyati – harbiyvatanparvarlikni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vatanparvarlik va mustaqil vatan ximoyasi haqidagi g‘oyalari, Oliy majlis qonun va qarorlari, Xalq ta’lim vazirligi, Harbiy ma’muriy sektorlar, Mudofaa vazirligining buyruq va ko‘rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy tayyorgarlik fanlari o‘rin olgan. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishdagi kuchli ijtimoiy pedagogik ta’sir ularning kuchli va mard ajdodlari borligiga ishontirish hamda ularda tarixiy xotirani shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Vatanparvarlik - bu kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbatni va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiyoq bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlarini yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko‘p uchraydi. Masalan, Abdulla Avloniy, u qatag‘on yillari paytida yashagan bo‘lsa ham so‘z erkinligi unda juda rivojlangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, u o‘zining bolalarni o‘qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan. Uning bolalarga Chet tilini o‘rgatish, Savod chiqarish va boshqa o‘qitishga oid qilgan ishlari taqsimga loyiq. Birinchi prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida ham ajdodlarimiz o‘z ona yurtlari uchun qo‘sigan hissalari haqida juda ko‘p malumotlar keltirilgan masalan Chingizzon zulmiga qarshiliklar Amir Temur jasorati Jaloldin Manguberdi va boshqa buyuk sarkardalar haqida malumotlar berilgan. Ular kabi bobokalonlarimizning vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug‘lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog‘liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatları aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish talaba yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Talabalarni vatan himoyasiga tayyorlash ishlaringning tubdan o‘zgarishi vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shuningdek, tashkiliy-uslubiy jihatlardan to‘liq foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, an‘anaviy tarbiya shakllarini tanlash va mustaxkamlash zarur. Hozirgi sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini vazifalarini to‘la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tadbiq etish lozim. Bunda asosiy e’tiborni vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarni tashkiliy jihatdan ta’sirchanligiga yo‘naltirilganligiga qaratish zarur. Yoshlar

har qanday davlat yoki jamiyat rivojining kafolati hisoblanadi. Sababi – qaysi davlat yoki jamiyat yoshlar salohiyatining yuksalishiga yetarli imkoniyat yaratib, undan to‘g‘ri foydalana olsa, bunday davlatning kelajagi porloq bo‘ladi. Jamiyat va davlatning dinamik o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi muhim ijtimoiy qatlama sanalmish yoshlarga islohotlarning maqsadini o‘rgatish muhim. Chunki yoshlar o‘zlarining qarashlari, qiziqishlari, qadriyat va manfaatlari orqali jamiyatdagi o‘zgarish hamda islohotlarni anglab, idrok etib, unda bevosita qatnashishga tayyor bo‘lib boradi.

Yoshlar orasida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga mas’uliyatli munosabat, harbiy xizmatga hurmat tuyg‘ularini tarbiyalash, mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo‘yicha yuksak burch tuyg‘usini shakllantirish borasidagi ishlarni kuchaytirsish ishlari olib borilmoqda.

Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, bunda dastlab talabalarga vatanparvarlikning mohiyati va me‘yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi, avvalo, fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar, bu xildagi hatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so‘ngra faoliyat uyuştiriladi. Ana shu asosida ularda vatanparvarlik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi. Vatanparvarlik tarbiyasining bosh maqsadi - yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma‘naviy-tarixiy an‘analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Dunyoda oila, maktab va oliy ta‘lim hamkorligi asosida yoshlarning harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashning yangi metodikalarini ishlab chiqish, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yoshlarga Vatanga sadoqat va mardlik fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish, refleksiv yondashuv asosida ta‘lim oluvchilarda vatanparvarlik va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yoshlarda harbiy xizmatga motivatsion-qadriyatli yo‘nalganlikni tarkib toptirish, vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat, uni himoya qilishga tayyorlik, harbiy burch va qasamyodga sodiqlik kabi axloqiy-psixologik sifatlarni shakllantirish, madaniy-tarixiy, o‘lkashunoslik materiallari asosida ta‘lim oluvchilarda harbiy vatanparvarlikni rivojlantirish uzliksiz ma‘naviy tarbiyaning muhim jihatlarini o‘zida ifoda etadi.

Mamlakatimizda “yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqr singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlарimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalinish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash” muhim vazifalar sifatida belgilab olingan. Bu esa, yangi yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida yuqori sinf o‘quvchilarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmunini yoritib berish, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoev “Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik va ma‘naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajodolarimiz merosi va ularning harbiy san’atni rivojlantirishga qo‘sghan hissasini chuqr o‘rganish muhim ahamiyatga ega”

deya ta'kidlagan edi. Iste'dodli va tajribali lashkarboshi sifatida Amir Temur vatanimiz hududida harbiy ish va taktikaning rivojlanishida chuqur iz qoldirdi, u nafaqat O'rta Osiyo, balki jahon harbiy ilmini rivojlantirishga, yangi usullar va taktikani shakllanishiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Sohibqiron shaxsiyatining hozirgi zamon angiliyalik tadqiqotchisi Xilda Xukxem g'arb temurshunosligida birinchi bor bor haqiqatni ko'rsatib berdi. "Temur dunyoga kelgan yurtda, – deb yozadi olima, – falsafa, tibbiyot, tarix, adabiyot va boshqa sohalarda olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa uyg'onish davriga turtki bo'ldi" Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'n beshinchi asrni temuriylar Renessansi davri deb atash mumkin. Dunyoda g'oyaviy va siyosiy kurashlar keskinlashayotgan bir sharoitda yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, AQSh ta'lim tizimida «Political education» va «Formation of moral spirit» deb nomlangan fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasini oshirish bo'yicha ta'lim – tarbiya dasturlari mavjud. Yoshlarning bilim va salohiyatlari, maqsad va intilishlari millat oldidagi burchclarini qay darajada anglab yetganliklariga qarab mamlakat, millatining kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini bemalol aytib berish mumkin. Talaba-yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bu yo'lida asrlarga tengdosh milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlаримиз, tarixимиз sahifalaridan, an'analarimizdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yurtimiz fuqarolari vatanparvarlik, ona-yurti bilan faxrlanish, iftixon, g'urur va ertangi kun uchun javobgarlik hissi bilan yashamoqdalar va yaratuvchanlik ishlarini olib bormoqdalar.

Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy omillar bilan bir qatorda, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim tarbiya jarayoni muhim o'rin tutadi. Talaba faoliyatining asosiy turi o'qish bo'lib, unda harbiy vatanparvarlik hissining rivojlanishi ushbu faoliyat turining to'g'ri tashkil etilishi va maqsadga muvofiq yo'naltirilishiga bog'liq. Talaba yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda harbiy amaliy sport turlari bo'yicha musobaqalar muhim o'rin tutadi. Harbiy o'yinlar, talabalar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shakllaridan biri hisoblanadi.

Talaba yoshlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishning yana bir muhum asosiy omillaridan biri bu talabalarning tarixiy mezeylarga, harbiy muzeylarga, harbiy sport o'yinlariga tashrif buyurushidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdag'i "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ №-3907-sonli Qarorida yurtimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqur bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Shu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi". "Vatanparvarlik" atamasi boshqa tillarda ham hududiy bog'liqlik bilan birga, yurtiga muhabbat his-tuyg'usini bildiradi. Yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratish ayniqsa ijtimoiy va ma'naviy sohalarda ham e'tiborni susaytirmaslik lozimligi ta'kidlanadi: "...ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi"-deydi muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan

tushunchasining ma'nosini chuqur anglab yetishiga o'rgatish, vatanparvarlik - yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish asosiy vazifalardan biridir. Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har qanday mamlakat xavfsizligi va barqorligini ta'minlashda, eng avvalo, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari borasida jiddiy izlanishlar talab qilinadi. Bu esa mamlakatda yoshlarning vatanparvarlik fazilatini tarbiyalashda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish orqali xavfsizlikni ta'minlashda istiqboldagi maqsadlarga erishuvga zamin yaratadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida vatanparvarlikni, muhabbat tuyg'usi chinakam e'tiqodga aylanishi uchun ularda tarixiy shaxslarni vatanparvarligi, vatan oldidagi qahramonligi o'rgatish, psixologik ta'sir ko'rsatib mardlik va jasorat sifatlarini rivojlantirish mumkin.

Davlatimizning asosiy vazifalaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodlari va shakllari yordamida inson ongiga har qanday tajovo'zkorliklarga qarshilik ko'rsatishda doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z Vatani himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik hissiyoti ruhida tarbiyalashdir. Talaba - yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida pedagogika va psixologiya qoidalaridan keng foydalanilanish katta ahamiyat kasb etadi. Harbiy ta'limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, unda asosan quyidagilarini anglash lozim: talaba – yoshlarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; ularda o'z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy xislatlarni tarbiyalash; komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish va ular oldida turgan vazifalarni bajarishga va har xil vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirishdan iborat.

Yoshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas'uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o'zlarini hissalarini qo'shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo'yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Milliy o'zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvarlik komillikning eng yorqin jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham Hadisi Sharifda "Vatanni sevmoq – iymondandur" deb da'vat qilinadi.

Vaholanki, o'tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqning bugungi avlodlari, o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilishini ta'kidlab o'tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg'ular milliy g'urur hamda ruhiy barkamollikka etaklaydi, milliy o'zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo'lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik, sabot – matonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarni talaba – yoshlar va o'qituvchilarda rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport o'inlarining roli benihoyat kattadir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

## Foydalanimanadabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Xavfsizlik kengashi majlisidagi “Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi nutqi //–Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil, №3.
2. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori. ...diss. – T., 2016. – 243 b. B.78.
3. Tursunov Sh.R Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar: falsafa fanlari doktori Phd . .... diss. –T-2023
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi 2019 yil respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldag“Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021 y., 09/21/320/0482-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdag“Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ №-3907-sonli qarori
7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 104 b.;
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.12.2018 yildagi PQ-4061-son
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.06.2023 yildagi 267-son
10. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.